



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL — MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqib boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 21-aprel, № 78 (9249)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON PREZIDENTI ROSSIYA DELEGATSIYASINI QABUL QILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev shu kunlarda Toshkent shahrida o'tayotgan "INNOPROM. Markaziy Osiyo" xalqaro sanoat ko'rgazmasida Rossiya delegatsiyasiga boshchilik qilayotgan Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisining birinchi o'rinbosari Denis Manturovni qabul qildi.



Uchrashuvda Tatariston, Boshqirdiston Respublikalari, Leningrad, Kirov, Irkutsk va Omsk viloyatlari, shuningdek, Rossiyaning bir qator

yetakchi kompaniyalari rahbarlari ham ishtirok etdi. Suhbat avvalida yuqori martabali mehmon mamlakatimiz yetakchisiga Rossiya

Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'zbekiston Prezidenti 35 mamlakatdan 10 mingdan ziyod biznes vakillari ishtirokida oltinchi "INNOPROM" ko'rgazmasi muvaffaqiyatli tashkil etilgani va o'tkazilayotganini olqishladi.

Oliy darajada, eng avvalo, savdo-iqtisodiy sohada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish masalalari ko'rib chiqildi.

Savdo hajmi barqaror o'sib borayotgani, sanoat, tinch atom, energetika, transport, metallurgiya, kimyo va boshqa tarmoqlardagi loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Tovar ayirboshlash sur'atini saqlab qolish va ustuvor tarmoqlarda, shu jumladan, sanoat zonalarida doirasida kooperatsiya

loyihalarini jadallashtirish bo'yicha o'zaro muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlarni qabul qilish, hududlar va tadbirkorlar darajasidagi faol aloqalarni davom ettirish muhimligi ta'kidlandi.

Qishloq xo'jaligi mashinasozligi, energiya samaradorligi, suv xo'jaligi, kibernetika va sun'iy intellekt kabi istiqbolli yo'nalishlardagi rejalarni qo'llab-quvvatlandi.

Texnika yo'nalishidagi qo'shma oliygohlar negizida iqtisodiyotning muhim tarmoqlari uchun muhandis kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratildi.

Shuningdek, uchrashuvda Rossiya hududlari va kompaniyalari rahbarlari mamlakatimiz yetakchisiga turli tarmoqlarda yangi loyihalarni amalga oshirish bo'yicha aniq rejalarni taqdimot qildi.

O'z.A.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

O'ZBEKISTON PREZIDENTI QOZOG'ISTONDAGI XALQARO TADBIRLARDA ISHTIROK ETADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning taklifiga binoan Mintaqaviy ekologik sammit va Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlari kengashining yig'ilishida ishtirok etish uchun 21-22-aprel kunlari amaliy tashrif bilan Ostona shahrida bo'ladi.

Bo'lajak tadbirlar davomida Markaziy Osiyoning barqaror taraqqiyoti yo'lida mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, mintaqaning dolzarb ekologik, iqlim va suv muammolarini hal etish masalalari muhokama qilinadi.

Prezidentimiz ushbu masalalar bo'yicha o'z fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashadi, milliy pavilyonlardan iborat maxsus ekologik ko'rgazmaga tashrif buyuradi.

Sammitlar yakunida qator muhim hujjatlar qabul qilinishi kutilmoqda.

O'z.A.

Forum

NARKOJINOYATLAR — GLOBAL XATAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Narkotiklar va o'qotar qurollarni nazorat qilish agentligi hamda BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi hamkorligida "Jamoat salomatligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida transmilliy narkotahdidlarga qarshi kurashish" mavzuida global forum bo'lib o'tmoqda.

Samarqand shahridagi "Buyuk Ipak yo'li" xalqaro turizm markazida o'tkazilayotgan ushbu forum narkotiklarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish samaradorligini oshirish, ilg'or xalqaro tajribani tizimli o'rganish va amaliyotga joriy etish, zamonaviy narkotahdidlarga qarshi kompleks yondashuvlarni ishlab chiqish, gijohvandlikka qarshi kurashda davlatlararo va xalqaro hamkorlikni

mustahkamlashga qaratilgan.

Forumda BMT, Yevropa Ittifoqi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Jahon bojxona tashkiloti hamda boshqa 20 dan ortiq nufuzli xalqaro tashkilotlar vakillari, 50 ga yaqin davlatlardan huquqni muhofaza qiluvchi organlar rahbarlari va 500 dan ko'proq xalqaro ekspertlar hamda soha mutaxassislari qatnashmoqda.

O'z.A.

"JAMOAT SALOMATLIGI VA XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MAQSADIDA TRANSMILLIY NARKOTAHIDILARGA QARSHI KURASHISH" MAVZUSIDAGI XALQARO FORUM ISHTIROKCHILARIGA

Assalomu alaykum, hurmatli forum ishtirokchilari!

Muhtaram mehmonlar!

Xonimlar va janoblar!

Sizlarni Jamoat salomatligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida transmilliy narkotahdidlarga qarshi kurashish forumida samimiy qutlashdan mamnunman.

Ko'hna va navqiron Samarqand shahriga xush kelibsiz!

Fursatdan foydalanib, bugungi anjumanda ishtirok etayotgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi ijrochi direktori o'rinbosari Bo Mathiasen janoblariga, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti Bosh direktori Tedros Adxanom Gebreyesus janoblariga, Xalqaro narkotiklarni nazorat qilish qo'mitasi Bosh kotibi Stefano Berterame janoblariga, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar rahbarlariga, xorijiy hukumatlar a'zolariga, xorijiy davlatlarning muhtaram elchilariga, shuningdek, barcha mehmonlarimizga o'zimizning minnatdorligimni bildiraman.

Qadrili tadbir ishtirokchilari!

Bugungi tahlikali zamonda dunyo hamjamiyatining yanada qat'iyat bilan birgalikda harakat qilishi har qachongidan ham dolzarb bo'lib bormoqda.

Kun sayin uyushgan jinoyatchilik, gijohvand moddalarni ishlab chiqarish va tarqatishning yangi shakllari paydo bo'layotgani insoniyat uchun transmilliy tahdidlar ko'lamini kengaytirmoqda.

Bu jarayonlar nafaqat mamlakatlar xavfsizligi, balki eng qimmatli bo'lgan inson hayoti va salomatligi, odamlarning kelajagiga salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmaydi.

Bugun narkotiklar savdosi transchegaraviy va virtual xarakterga ega bo'lib borayotgani xavf-xatarlarni yanada kuchaytirmoqda. Ayniqsa, jinoyi guruhlarning shifrlangan aloqa kanallari, kontaktiz muloqot va murakkab moliyaviy vositalardan foydalanayotgani narkotiklarga qarshi kurashishda bizdan zamonaviy yechim va yondashuvlarni talab qilmoqda.

Bugun aholi, ayniqsa, yoshlar orasida yangi sintetik narkotiklar, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar keng tarqalayotgani ham barchamizni chuqur tashvishga solishi tabiiy.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, dunyoda 300 milliondan ortiq odam gijohvand moddalar ta'siriga tushib qolgan. Har yili 600 mingga yaqin inson ushbu illatning qurboniga aylanmoqda.

Bugungi globallashuv sharoitida bunday xavf-xatar barcha davlatlar qatorida O'zbekistonni ham chetlab o'tayotgani yo'q. Shu bois O'zbekistonda gijohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish masalasini umummilliy harakatga aylantirib, barcha kuch va vositalarni safarbar qilyapmiz.

So'nggi yillarda sohada idoralararo hamkorlikni mustahkamlash, profilaktika mexanizmlarini rivojlantirishga qaratilgan 20 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilindi. Ayniqsa, 2024-yilda narkotiklarga qarshi kurashish bo'yicha milliy strategiya qabul qilindi bu boradagi eng katta qadam bo'ldi.

Bunday sa'y-harakatlarimiz hisobiga so'nggi yillarda narkotiklarning noqonuniy aylanmasi bilan bog'liq jinoyatlarni aniqlash ko'rsatkichi 2,5 barobar oshdi, musodara qilingan gijohvandlik vositalari 2 barobar, yo'q qilingan sintetik narkotiklar 7 barobar ko'paydi.

Birgina o'tgan yilning o'zida huquq-tartib idoralari tomonidan 15 mingdan ziyod narkojinoyat fosh etildi, qariyb 3,5 tonna gijohvandlik vositalari, jumladan, 120 kilogramm sintetik narkotiklar yo'q qilindi, 14 ta yashirin narkolaboratoriya va 72 ta yirik internet do'koni faoliyatiga chek qo'yildi.

O'z.A.

ISTIQBOLDAGI HAMKORLIKNING ASOSIY YO'NALISHLARI BELGILAB OLINDI

Avval xabar berganimizdek, 15 — 19-aprel kunlari Turkiyaning Istanbul shahrida Parlamentlararo Ittifoqning 152-assambleyasi bo'lib o'tdi. Unda Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi O'zbekiston parlament delegatsiyasi ishtirok etdi va 152-assambleya doirasida o'tkazilgan Parlament ayol a'zolari forumi, Qo'shimchaslik harakati parlament tarmog'ining 5-konferensiyasi hamda Yosh parlament a'zolari forumi kabi tadbirlarda faol qatnashdi.

Anjuman

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Parlamentlararo Ittifoq prezidenti Tuliya Ekson va Bosh kotibi Martin Chungong bilan ham uchrashdi.

Muloqotlar chog'ida

Plning parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirish, demokratik qadriyatlarini ilgari surish va barqaror rivojlanishga ko'maklashish borasidagi muhim o'rni qayd etildi. O'zbekistonning Parlamentlararo Ittifoq bilan aloqalari jadal rivojlanib, sifat jihatdan yangi bosqichga

O'z.A.

BARQAROR RIVOJLANISHDA YANGI IMKONIYATLAR VA MUSTAHKAM HUQUQIY ASOS

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi muhim voqe'larga e'tibor qaratildi, shuningdek, quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalari ko'rib chiqildi.

Fraksiyalar hayoti

Mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyoti kafolati

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida davlatimiz rahbarining



tadbirkorlik subyektlariga nisbatan moliyaviy jarimalarini qo'llash tartibini yanada liberallashtirishga qaratilgan takliflar taqdimotida belgilab berilgan vazifalarning ahamiyati haqida so'z yuritildi. Deputatlar shu yil 1-oktyabrdan jarimalarni ixtiyoriy to'lashni rag'batlantiruvchi tartib joriy etilayotganini qo'llab-quvvatledi.

O'z.A.

"YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI — 2030" STRATEGIYASI TAQDIMOTI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 20-aprel kuni "Yangi O'zbekiston yoshlari — 2030" strategiyasi loyihasi yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Bu mamlakatimizda yoshlarga oid qabul qilinayotgan birinchi yaxlit strategiya bo'lib, Yangi O'zbekistonni barpo etishda yoshlarning o'rni va salohiyatini yanada to'liq ro'yobga chiqarishga qaratilgan.

Bugungi kunda yurtimiz aholisi 38 million nafarni tashkil etayotgan bo'lsa, shundan 9,5 millioni yoki qariyb 25 foizi 14 — 30 yoshdagi yigit-qizlardir. Har yili 270 mingta yosh oila shakllanmoqda. Ana shu demografik omil yoshlar siyosatiga uzoq muddatli va tizimli yondashuvni talab etmoqda.

Strategiyada yoshlar bandlegini ta'minlash va tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, sifatli va inkluziv ta'limni rivojlantirish, xorijiy tillarni ommalashtirish va kasbiy ta'limni kengaytirish, mehnat bozorini rag'batlantirish hamda yosh

oilalarni qo'llab-quvvatlash, madaniy, jismoniy va ma'rifiy rivojlanishini kuchaytirish, volontyorlik harakatini keng yoyish, yoshlar salomatligini mustahkamlash, shuningdek, ochiqlik va ishtirok mexanizmlarini kengaytirish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilangan.

Taqdimotda 2030-yilga qadar erishilishi lozim bo'lgan asosiy maqsadli ko'rsatkichlar ko'rib chiqildi. Xususan, har yili 600 ming nafar yoshning bandlegini ta'minlash, 2030-yilga qadar 900 ming yoshni volontyorlikka jalb etish, o'quv markazlari sonini 90 mingtaga yetkazish, 450 ming nafar yoshning xorijiy tillar bo'yicha bilimini "B2" darajasiga olib chiqish, yoshlar jinoyatchiligi kamaytirish, har yili kamida 10 mingta yosh oilani ipoteka orqali qo'llab-quvvatlash kabi vazifalar nazarda

O'z.A.

TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI ZAMON TALABLARIGA MOSLASHTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashqi mehnat migratsiyasini tartibli tashkil etish, fuqarolarni xorijdagi yuqori daromadli ish o'rinlariga tayyorlash va ularni har tomonlama himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Bugungi kunda 40 ga yaqin xorijiy davlatlarda 1,2 million nafar fuqarolarimiz mehnat qilmoqda. Yevropa va Sharqiy Osiyoning rivojlangan davlatlarida malakali ishchi kuchiga ehtiyoj yildan-yilga ortib bormoqda. Qolaversa, Yevropa komissiyasining 2030-yilgacha bo'lgan yangi migratsiya strategiyasida Markaziy Osiyo bilan migratsiya dasturlari, kadrlar tayyorlash va noqonuniy migratsiyaning oldini olishga alohida urg'u berilgan.

Shu bois tashqi mehnat migratsiyasi bozori geografiasini kengaytirish, ayniqsa, yuqori daromadli mehnat bozorlariga chiqish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Bugungi kunda xorijdan til va kasb talablariga javob beradigan 100 mingdan ortiq malakali mutaxassislariga

buyurtmalar kelib tushgan. Jumladan, Germaniyaga 40 ming hamshira, Yaponiyaga 15 ming qurollash, logistika va servis sohasidagi mutaxassislari zarur.

Mazkur ehtiyojni qoplashda Germaniya, Janubiy Koreya va Yaponiya kompaniyalari bilan texnikumlar negizida tashkil etilgan qo'shma ta'lim loyihalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xorijiy kompaniyalar bilan tashkil etilgan 12 ta "Kasb plyus til" tamoyili asosida qo'shma ta'lim loyihalarida 8,5 ming fuqaro o'qimoqda. Ularning 3 ming bitiruvchisi allaqachon ishga joylashdi.

Endilikda bunday loyihalar sonini 20 taga yetkazish, talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasb va xorijiy tillarga o'qitish ko'lamini 50 foizga kengaytirib, qamrovni 10 ming nafardan oshirish rejalashtirilgan.

O'z.A.

“JAMOAT SALOMATLIGI VA XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MAQSADIDA TRANSMILLIY NARKOTAHIDDLARGA QARSHI KURASHISH” MAVZUSIDAGI XALQARO FORUM ISHTIROKCHILARIGA

Ayni paytda shuni aytish kerakki, bunday jinoyatlarning uchdan biri yoshlar tomonidan sodir etilayotgani, asosiy xavf guruhini 15 yoshdan 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil qilayotgani bu illatning aholi genofondiga naqadar katta tahdid ekanligini ko'rsatib turibdi.

Xalqimizda “Bir bola yo'ldan chiqsa, jamiyat izdan chiqadi” degan hikmatli gap bor. Shu ma'noda, bir farzandning gijohvandlik tuzog'iga tushib qolishi, bu nafaqat uning oilasi, yaqinlari, balki butun bir mahalla uchun fojia.

Shuning uchun O'zbekistonda buning oqibatlarini bilan kurashibgina qolmay, yoshlarimizning gijohvandlik chugaliga tushib qolishining oldini olish bo'yicha katta targ'ibot kampaniyasini boshlaganmiz.

Bu ishlarda faxriylarimiz, nuroniy otaxon va onaxonlarimiz, mahallada obro'-e'tibor qozongan faollar, jamoatchilik vakillari bosh-qosh bo'layotgani o'zining natijasini bermokda.

Biz buni izchil davom ettirib, oila, mahalla, maktab, texnikum, oliygo'harlarning o'rni va rolini yanada kuchaytirish bo'yicha alohida dasturlarni amalga oshiryapmiz.

Tasvirlarimiz — yoshlarimizni bunday xatarlardan asrash, ularni ilm, bilim va ezgu maqsad sari yo'naltirishdir.

Yaqinda tashkil etilgan “Anti-Narko” volontyorlik harakati qisqa vaqt ichida 17 mingdan ortiq yoshlarni birlashtirdi. Barcha hududlarda sun'iy intellekt yordamida narkotiklar tarqalishining oldini olishga qaratilgan “AI Hackathon” milliy loyihasini boshladik.

Hech shubhasiz, bu ishlarimiz yoshlarda gijohvand moddalar iste'moliga qarshi mustahkam immunitet, narkojinoyatlariga nisbatan murosasiz muhit yaratishga xizmat qiladi.

O'tgan yili mamlakatimiz Osiyo davlatlari

orasida birinchi qatorida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasining “CHAMPS” tashabbusiga qo'shildi. Ushbu dastur voyaga yetmaganlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini ommalashtirish va narkotiklarga qarshi yanada samarali kurashishda katta yordam bermokda.

Hurmatli yig'ilish qatnashchilari!

Gijohvandlikka qarshi kurash — bu faqat bir davlatning emas, balki butun insoniyatning umumiy mas'uliyati va majburiyatidir.

O'zbekiston narkotiklarga qarshi kurashish borasida 50 dan ortiq davlat va nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qilib kelmokda.

Biz bu aloqalarni mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikni ta'minlash hamda xalqlar o'rtasidagi ishonchni yanada mustahkamlashga qaratilgan muhim ko'priklarni deb bilamiz.

Hozirgi kunda narkotiklar savdosi zamonaviy texnologiyalar, noqonuniy moliyaviy oqimlar, transmilliy uyushgan jinoyatchilik tarmoqlari bilan chuqur bog'lanib ketganini yana bir bor ta'kidlamokchiman.

Bu xavflarga qarshi kurashish, narkojinoyatlarning oldini olish bo'yicha quyidagi tashabbuslarni ilgari suramiz.

Birinchi, transmilliy narkojinoyatlariga qarshi kurashishda tezkor axborot almashinuvi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shu bois barcha ishtirokchi davlatlar huquq-tartibot idoralari ma'lumotlar bazasini birlashtiradigan, sun'iy intellekt yordamida ishlaydigan yagona raqamli platformani ishga tushirishni taklif etamiz.

Bu platforma narkotrafik yo'nalishlarini barvaqt aniqlash, xavfli yuklar harakatini erta bosqichda fosh etish, transmilliy jinoyi guruhlar faoliyatini real vaqt rejimida kuzatib borishga xizmat qilishi kerak.

Ikkinchi, narkobiznes bo'yicha gijohvand moddalar aylanmasi emas, bu — milliardlar dollarlik yashirin iqtisodiyot, uyushgan jinoyatchilik va terrorizmni moliyalashtiradigan manba hamdir.

Jinoyi mablag'larni yuvishning eng katta qismi bugun aynan raqamli aktivlar va offshor hududlar orqali amalga oshirilmoqda. Narkobiznesni qurol bilan emas, pulsiz qoldirish orqali yengish mumkin. Agar biz uning “moliyaviy arteriya”larini bo'g'ib qo'ysak, bu illat o'z-o'zidan yo'qoladi.

Shuning uchun kripto-birjalar uchun majburiy identifikatsiya standartlarini global darajada birlashtirish, offshor yurisdiksiyalari bilan ma'lumot almashinuvi bo'yicha majburiy kelishuvlar, “noma'lum manba” mablag'larni avtomatik bloklash mexanizmlarini joriy etish zarur.

Shuningdek, noqonuniy mablag'lar harakatini dunyo bo'yicha avtomatik aniqlaydigan, uni qabul qilgan bank yoki moliyaviy tashkilotni darhol xavf toifasiga kiratadigan “xalqaro raqamli qora kod” tizimini joriy qilishni taklif etamiz.

Uchinchi, ko'rib turibsaniz, kundankunga sintetik narkotiklarning yangi-yangi turlari paydo bo'lmoqda.

Shu bois doimiy muloqot maydonini ishga tushirib, sintetik narkotiklarga ruju qo'yan bemorlarni samarali davolash bo'yicha zamonaviy metodika va standartlarni birgalikda yaratib borishni taklif qilamiz.

To'rtinchi, gijohvandlikka chalinganlarning tibbiy reabilitatsiyasi bo'yicha tajriba almashish maqsadida Markaziy Osiyo Narkologlar assotsiatsiyasini tashkil qilsak, o'ylaymanki, qo'llab-quvvatlaymiz.

Ushbu tashkilotning Bosh ofisini Samarqand shahrida joylashtirishga tayyormiz.

Beshinchi, bugun ayrim hududlarda narkotik yetishtirish va tarqatish iqtisodiy imkoniyatlar cheklangani, ish o'rnlari yetishmasligi va ijtimoiy tengsizlik oqibatida

saqlanib qolmoqda.

Shu bois narkotrafik xavfi yuqori bo'lgan hududlar uchun “maxsus rivojlanish dasturi”ni ishlab chiqishni taklif etamiz.

Bunda gijohvand moddalar yetishtirishga mo'ljallangan rasmiy iqtisodiyotga faol investitsiyalar kiritish orqali aholi uchun barqaror daromad manbalarini yaratish, infratuzilmani yaxshilash, ta'lim va tibbiyotni rivojlantirish orqali aholining jinoyi iqtisodiyotga qaramligini kamaytirish bo'yicha kompleks choralar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Bunday dastur faqat grant yoki yordam emas, balki xalqaro hamjamiyatning umumiy mas'uliyati sifatida ko'rinishi kerak.

Hurmatli do'stlar!
Bugungi tadbirimizda hamkor davlatlar va nufuzli xalqaro tashkilotlardan 500 nafarga yaqin ishtirokchi qatnashmoqda.

Mazkur anjumanda ilgari suriladigan taklif va tashabbuslar insoniyatga, millatlar genofondiga tahdid solayotgan narkotiklar muammosiga qarshi birlashgan yo'lida yangi qadam bo'ladi.

Bu borada O'zbekistonning pozitsiyasi qat'iy: biz ushbu tahdidlarga qarshi kurashishda hech qachon ikkilanmaymiz, chekinmaymiz, ortga qaytmaymiz!

Biz barcha sherkatlarimizni ushbu global tahdidga qarshi amaliy harakatga chaqiramiz!

Ishonchim komil, forumda qabul qilinadigan Samarqand deklaratsiyasi xalqlarimiz xavfsizligi, salomatligi va farovonligini mustahkamlashga xizmat qiladi hamda ushbu muhim yo'nalishda xalqaro hamkorlikni yanada kuchaytiradi.

Barchangizga mustahkam sog'liq, mas'uliyatli faoliyatingizda yangi yutuq va omadlar, forum ishiga muvaffaqiyatlar tilayman.

Shavkat MIRZIYOEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

“YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI — 2030” STRATEGIYASI TAQDIMOTI

Ta'lim sohasida yoshlarning sifatli bilim olishi, nodavlat ta'lim xizmatlarini qo'llab-quvvatlash, chekka hududlarda o'quv markazlari imkoniyatlarini kengaytirish, xorijiy tillarni o'rganishni rag'batlantirish bo'yicha yangi imtiyozlar nazarda tutilgan.

Jumladan, olis va chekka hududlarda o'quv markazlarini tashkil etishga 300 million so'mgacha ssuda ajratish, ular uchun ijtimoiy soliqni va o'qituvchilarning daromad solig'ini 1 foiz etib belgilash taklif etildi. Shuningdek, “B2” darajaga erishgan yoshlar uchun xorijiy pasport rasmiylashtirish uchun bojni, “C1” daraja va tadbirkorlik tashabbuslari uchun ayrim davlat xizmatlari to'lovlarini 50 foizgacha kamaytirish taklif qilinmoqda.

Strategiyada yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash masalasiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Iptekta dasturi orqali kreditning Markaziy bank stavkasi yuqori qismi qoplab berilishi, shu tariqa uy-joy masalasida yosh oilalarga qo'shimcha yengillik yaratilishi belgilanmoqda.

Ijtimoiy faollikni oshirish maqsadida volontyorlik jam'arimasidan 100 million so'mgacha grantlar ajratish, faol yoshlarni davlat tashkilotlarida pullik amaliyotga jalb qilish, ilg'or ijodkorlar uchun Prezident mukofotini joriy etish, shuningdek, kitob va Book-kafelar joylashgan “Yoshlar ko'chalari”ni tashkil qilish rejalashtirilgan. Yoshlar infratuzilmasining minimal standartlari belgilanadi, har bir hududda “yoshlar tuman-shaharlari” tanlab olinib, ushbu standartlarni joriy etish bo'yicha namuna yaratiladi.

Yoshlar salomatligini mustahkamlash, ruhiy xavf omillarini qisqartirish, psixologik ko'mak tizimini kuchaytirish masalalari ham strategiyada o'z aksini topgan. Xususan, ruhiy xavf guruhiga kiruvchi yoshlar ulushini 40 foizga kamaytirish, tunu kun ishlaydigan psixologik aloqa markazini tashkil etish, sport bilan shug'ullanuvchi yoshlar ulushini 25 foizga oshirish nazarda tutilmoqda.

Yoshlar siyosatida ochiq muloqot va obyektiv tahlil tizimini kuchaytirish maqsadida Yoshlar muammolarini

o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tomonidan yoshlarning ehtiyojlari va kutilmalari yuzasidan ijtimoiy so'rovlar o'tkazilib, Milliy yoshlar indeksi tuziladi. Yigit-qizlarning murojaatlari bilan ishlagana ustuvor ahamiyat qaratiladi. Har payshanba yoshlar bilan muloqotlar o'tkazib boriladi.

Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish ham strategiyaning muhim yo'nalishlaridan biri etib belgilangan.

Shu maqsadda xalqaro forumlar, global tashabbuslar, avlodlar muloqoti, Xalqaro yoshlar kongressi kabi formatlar yo'lga qo'yilishi, 12-avgust — Xalqaro yoshlar kuni doirasida yirik tadbirlar o'tkazilishi, 100 ming nafar o'zbekistonlik yoshing xalqaro dasturlarda ishtirokini ta'minlash rejalashtirilgan. Shuningdek, BMT, Jahon banki, YTTB kabi tuzilmalar bilan “Junior Professional Officer” dasturi doirasida xalqaro tashkilotlarda amaliyotni tashkil etish ko'zda tutilgan.

Strategiyani 2026-2027-yillarda amalga oshirish doirasida 7 ta yo'nalish bo'yicha 56 ta loyiha amalga oshiriladi. Jumladan, “Yangi avlod tadbirkorlari” dasturida Garvard, Stenford, MIT, London biznes maktabi kabi nufuzli ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda 20 ming yoshni o'qitish, 1 mingta biznes loyihasini saralab olish va ularga 3-yilgacha muddatga bazaviy hisoblash miqdorining 500 baravarigacha ssuda berish rejalashtirilgan. Yosh tadbirkorlarga muhandislik tarmoqlariga ulanish xarajatlarini qisman qoplash tartibi ham joriy etiladi.

Respublika bo'yicha “O'zbekiston yoshlarni sevadi!” loyihasi, “Hayot fest” yoshlar festivali, “Talaba Fest” va “Talaba Expo 2026” kabi tadbirlar o'tkaziladi, Robototexnika assotsiatsiyasining faoliyati qo'llab-quvvatlanadi.

Davlatimiz rahbari yoshlar masalasiga doir barcha tashabbus va choralar, eng avvalo, yosh avlodning bilimli, sog'lom, tashabbuskor va vatanparvar bo'lib kamol topishiga, ularning hayotda munosib o'rin egallashiga xizmat qilishi zarurligini ta'kidladi. Strategiyani samarali amalga oshirish bo'yicha mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berildi.

NARKOJINOYATLAR — GLOBAL XATAR

Nufuzli anjuman avvalida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning forum qatnashchilariga murojaatini Prezident Administratsiyasi rahbari Saïda Mirziyoyeva o'qib eshittirdi.

Murojaatda mamlakatimizda narkojinoyatlarga qarshi kurashish va bu illatning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, gijohvandlikning barvaqt oldini olish, samarali davolash, narkojinoyatlariga qarshi kurashish yo'nalishida 50 dan ortiq davlat va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilinayotgani qayd etilgan. Shuningdek, bu boradagi ishlarni takomillashtirish maqsadida davlatimiz rahbari tomonidan muhim tashabbuslar ilgari surildi.

Forumda BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi ijrochi direktori o'rinbosari Bo Matiasen va boshqalar so'zga chiqdi.

Ta'kidlanganidek, dunyoda tezkorlik va izchillik bilan davom etayotgan globallashuv jarayonlari davlatlarning iqtisodiy o'sishi, jamiyat xavfsizligi va ijtimoiy rivojlanishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatish bilan bir qatorda insoniyat uchun yangi turdagi xavf-xatarlarni keltirib chiqarmoqda.

So'nggi yillarda jahonda gijohvandlik moddalarining

noqonuniy aylanmasi va iste'moli global muammolardan biri sifatida saqlanib qolyapti. Mintaqalarda narkovaziyat turlicha tus olgan bo'lsa-da, uning ijtimoiy, iqtisodiy va sog'liqni saqlash tizimiga salbiy ta'siri barcha davlatlar uchun umumiy xavf tug'dirmoqda.

Xalqaro tashkilotlar ma'lumotlariga ko'ra, gijohvandlik moddalarini ishlab chiqarish va tarqatish tarmoqlari yil sayin murakkablashib boryapti. Ayniqsa, sintetik narkotiklar ulushining ortishi vaziyatni yanada jiddiylashtirmoqda. Shu bilan birga, gijohvandlik moddalari iste'moli yoshlar, hatto voyaga yetmaganlar keng tarqalayotgani jiddiy tashvish uyg'otadi.

Xalqaro tashkilotlar ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yab taxminan 300 mln. kishi kamida bir marta gijohvandlik moddalarini iste'mol qilgan, qurbonlar soni esa bir yilda 600 ming kishidan oshmoqda. Ushbu raqamlarning o'ziyiq muammoning qanchalik keng qamrovli ekanini yaqqol ko'rsatadi.

Mazkur salbiy tendensiyalarni inobatga olgan holda O'zbekistonda gijohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda sohada idoralararo hamkorlikni mustahkamlash, profilaktika



A. ISROLOV (O'ZA) o'lgan surat.

mexanizmlarini rivojlantirishga qaratilgan 20 dan ortiq qonun hujjatlari, 2024-yilda narkotiklarga qarshi kurashish bo'yicha milliy strategiya qabul qilindi. Bunday sa'y-harakatlar hisobiga so'nggi yillarda narkotiklarning noqonuniy aylanmasi bilan bog'liq jinoyatlarni aniqlash ko'rsatkichi 2,5 barobar oshdi, musodara qilingan gijohvandlik vositalari 2 barobar, yo'q qilingan sintetik narkotiklar 7 barobar ko'paytdi.

O'tgan yilning o'zida huquq-tartibot idoralari tomonidan 15 mingdan ziyod narkojinoyatlar fosh etildi, qariyb 3,5 tonna gijohvandlik vositalari, jumladan, 120 kilogramm sintetik narkotiklar yo'q qilindi, 14 ta yashirin narkolaboratoriya va 72 ta yirik internet do'koni faoliyatiga chek qo'yildi.

Jahon hamjamiyati ushbu muammoga qarshi kurashda hamkorlikni kuchaytirish, axborot almashish va qo'shma dasturlarni amalga oshirish orqali samarali natijalarga erishishga intilmoqda.

Ana shu maqsadda o'tkazilayotgan forumda mutaxassislar tomonidan narkotiklarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish samaradorligini oshirish, ilg'or xalqaro tajribani tizimli o'rganish va amaliyotga joriy etish, zamonaviy narkotahdidlarga qarshi kompleks yondashuvlarni ishlab chiqish hamda davlatlararo va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash masalalari muhokama qilinmoqda.

Forum doirasida tashkil qilingan narkojinoyi uyushgan guruhlariga qarshi kurashishda qo'llanilayotgan zamonaviy raqamli

texnologiyalar, texnik vositalar, mahalliy ishlab chiqarilgan maxsus jihozlar xalqaro ko'rgazmasi ishtirokchilari, xususan, xorijiy soha mutaxassislari o'rtasida katta qiziqish uyg'otdi.

Nufuzli anjumanda gijohvandlik moddalarining noqonuniy aylanishiga qarshi xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qo'shgan hisssasi uchun qator xalqaro tashkilotlar rahbarlari maxsus ta'is etilgan “Narkotiklarga qarshi kurashish fidoyisi” ko'krak nishoni bilan taqdirladi.

Forum doirasida bugun, 21-aprel kuni BMTning yoshlar tarmog'i ishtirokida ilk bor narkotahdidlarga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro yoshlar sammiti bo'lib o'tadi.

Abdulaziz YO'LDOSEV
 (“Xalq so'zi”).

YUQORI SANOAT SALOHİYATINING CHINAKAM KO'ZGUSI



Poytaxtimizdagi “Central Asian Expo” majmuasida “INNOPROM. Markaziy Osiyo” oltinchi xalqaro sanoat ko'rgazmasi o'z ishini boshladi. Unda jahonning 20 dan ziyod davlatlaridan kelgan kompaniyalar, yirik sanoat korxonalari, shuningdek, O'zbekistonning 400 ta sanoat tovarlari ishlab chiqarish subyekti o'z mahsulotlarini namoyish etmoqda.

Ko'rgazma

yaratishning asosiy omiliga aylanganini alohida ta'kidladi.

Darhaqiqat, bugungi kunda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida sanoatning ulushi 27 foizga yetdi. Joriy yil yakunlariga ko'ra esa iqtisodiy o'sish 6,8 foiz darajasida bo'lishi kutilmoqda. Tabiiyki, bunda mintaqa davlatlari bilan yaqin savdo-iqtisodiy hamkorlik aloqalari mustahkamlanib borayotgani muhim o'rin tutadi. Xususan, o'tgan yili O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari va Rossiya bilan tovar aylanmasi qariyb 22 mlrd. dollardan oshdi. Hozirgi vaqtda

yurtimizda 5,5 mingta qo'shma korxonalar faoliyat yuritmoqda, turli sohalarida esa umumiy qiymati 47 mlrd. dollardan ziyod bo'lgan 330 dan ortiq loyihalar amalga oshirilyapti. Bunda mashinasozlik, kimyo sanoati va yangi avlod energetikasi strategik ustuvor yo'nalishlar sifatida namoyon bo'lmoqda.

— Mazkur ko'rgazmada taqdim etilayotgan sanoat mahsulotlari turi yil sayin ko'payib, sifati oshib boryapti, — deydi ko'rgazma dasturi direktori Anton Atrashkin. — Bunga 18 ming kvadrat metr maydondagi namoyish bo'lmalaridan joy olgan yurtimiz va xorij kompaniyalari mahsulotlarini ko'rgan kishi yana bir karra ishonch hosil qiladi. Chunki an'anaviy ravishda o'tkazib

kelinayotgan mazkur tadbir O'zbekistonning sanoat salohiyati, investitsiyaviy jozibadorligi va eksport imkoniyatlarining chinakam ko'zgisiga aylanib, mintaqa mamlakatlari bilan iqtisodiyotning turli yo'nalishlarida hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qilmoqda.

Ko'rgazmaning ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari Jamshid Xo'jayev, Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisining birinchi o'rinbosari Denis Manturov, Belarus Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari Viktor Karankevich, Qozog'iston Respublikasi Sanoat va qurilish vaziri Yerayin Nagaspayev, Tojikiston Respublikasi Sanoat va yangi texnologiyalar vaziri Sherali Kabir hamda Yevrosiyo iqtisodiy komissiyasining sanoat va agrosanoat majmuasi bo'yicha vaziri Goar Barsegyan ishtirok etdi.

Abdunabi ALIQULOV
 (“Xalq so'zi”).

RIM ABDULOVICH
GINIYATULLIN

Davlat va jamoat arbobi, mehnat faxriysi Rim Abdulovich Giniyatullin 83 yoshida vafot etdi.

Rim Giniyatullin 1943-yil 18-sentyabrda Jizzax viloyatining Zomin tumanida tug'ildi. 1963-yilda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash institutini (hozirgi "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandisligi instituti" milliy tadqiqot universiteti) muhandis-gidrotekhnika yo'nalishi bo'yicha tugatdi. Mehnat faoliyatini O'zbekiston Qurilish vazirligida oddiy ishchi sifatida boshlab, keyinchalik ushbu vazirlikda usta, bosh muhandis vazifalarida xizmat qildi. U O'zbekiston Suv xo'jaligi vazirligida boshqarma boshlig'i o'rinbosari, bosh boshqarma boshlig'i, suv xo'jaligi vaziri o'rinbosari, Davlat reja qo'mitasi raisining o'rinbosari, Davlat agrosanoat qo'mitasi raisi o'rinbosari lavozimlarida ishlab, katta bilim va tajriba ortirdi.

Mohir tashkilotchi rahbar 1989 — 1996-yillarda Melioratsiya va suv xo'jaligi vaziri, 1996-1997-yillarda O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari kabi mas'ul lavozimlarda fidokorona mehnat qilib, mamlakatimizda suv va qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirish orqali yurtimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdi.

R. A. Giniyatullin Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasida turli rahbarlik vazifalarida ishlab, dengizning qurishi bilan bog'liq salbiy oqibatlarni yumshatish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqishda jonbozlik ko'rsatdi.

Umriining so'nggi yillarida u Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonlarida, xususan, ko'p millatli jamiyatimizda tinchlik, mehnat-qo'lib, bag'rikenglik va hamjihatlik muhitini mustahkamlash, keksalar va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash, yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalashda faol ishtirok etdi.

Rim Giniyatullinning mamlakatimizni taraqqiy ettirish borasidagi xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. U "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan irrigator", "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi" faxriy unvonlari, "Mehnat shuhrati" va "Do'stlik" ordenlari bilan mukofotlandi.

El-yurtimiz o'rtasida obro'-e'tibor topgan tajribali rahbar, yoshlarning mehribon ustози, samimiy va kamtarin inson Rim Abdulovich Giniyatullinning xotirasi qalblarimizda hamisha saqlanib qoladi.

SH. MIRZIYOYEV, T. NORBOYEVA, N. ISMOILOV,
A. ARIPOV, S. TURDIYEV

ISTIQBOLDAGI HAMKORLIKNING
ASOSIY YO'NALISHLARI BELGILAB OLINDI

Parlamentlararo Ittifoq rahbariyati aytganidek, O'zbekistonda o'tkazilayotgan xalqaro parlament tadbirlari, xususan, Toshkentdagi 150-assambleya namunali bo'lib, yuqori tashkiliy standartlarni belgilab berdi.

Tomonlar 4 — 6-sentyabr kunlari Samarqand shahrida o'tkaziladigan Yosh parlament a'zolarining 12-global konferensiyasiga tayyorgarlik ishlariga alohida e'tibor qaratdi. Ushbu anjuman Parlamentlararo Ittifoqning har tomonlama ko'magida yuqori saviyada o'tishiga ishonch bildirildi.

Muzokaralar yakunida parlament diplomatiyasini mustahkamlash borasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish va qo'shma tashabbuslarni amalga oshirishdan ikki tomon ham manfaatdor ekanini tasdiqlandi.

Shuningdek, Senat Raisi Turkiya Buyuk millat majlisi Raisi Numan Kurtulmush bilan ham uchrashuv o'tkazildi.

Unda ikki davlat rahbarlarining mustahkam siyosiy irodasi va o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlari natijasida O'zbekiston — Turkiya aloqalari keng qamrovli strategik sheriklik darajasiga ko'tarilgani ta'kidlandi. Parlamentlararo hamkorlik guruhlari va qo'mitalar o'rtasidagi aloqalarni yanada kuchaytirish, muntazam muloqot mexanizmlarini yo'lga qo'yish hamda qo'shma tashabbuslarni ilgari surish muhimligi qayd etildi.

Muloqot chog'ida savdo va investitsiyalar, sanoat, ta'lim, madaniyat va turizm sohalaridagi hamkorlik masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboeva 152-assambleya tadbirlari doirasida xorijiy davlatlar parlamentlari rahbarlari bilan ham qizgin muloqotlar olib bordi.

Jumladan, Qirg'iz Respublikasi Jogorku Keneshi torag'i Marlen Mamataliyev bilan uchrashuvda ikki mamlakat o'rtasidagi parlamentlararo hamkorlik izchil rivojlanayotgani ta'kidlandi. O'zaro tashriflar va xalqaro maydonlardagi muloqotlar ushbu hamkorlikni yanada mustahkamlayotgani



maqsadlari, gender tenglik, korrupsiyaga va odam savdosiga qarshi kurashish yo'nalishlarida hamkorlikni rivojlantirishga tayyorlik bildirildi.

Uchrashuv yakunida parlamentlar o'rtasidagi hamkorlikni yanada



Senati Raisi Yusuf Rizo G'iloniy bilan uchrashuvda ikki davlat o'rtasidagi siyosiy muloqot yuqori darajada ekanini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil fevral oyida Islomobodga tashrifi strategik sheriklik rivojiga yangi sur'at bag'ishlagani ta'kidlandi. Tomonlar parlamentlararo hamkorlikni faollashtirishga kelishib oldi.

Bahrayn Qirolligi Milliy Majlisi Maslahat kengashi (Shura kengashi) Raisi Ali bin Solih as-Solih bilan uchrashuvda esa ikki mamlakat xalqlari o'rtasidagi tarixiy-madaniy va diniy aloqalar mustahkamlanib e'tirof etildi. Tomonlar parlamentlararo hamkorlikni faollashtirishga tayyor ekanligini bildirdi. Uchrashuv davomida parlamentlararo hamkorlikni yanada kengaytirish, qo'shma tashabbuslarni ilgari surish va xalqaro muloqotni mustahkamlash masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Ozarbayjon Milliy Mejlisi Raisi Saxiba

Gafarova bilan bo'lib o'tgan muloqotda ikki davlat o'rtasida parlamentlararo munosabatlari izchil rivojlanib borayotgani qayd etildi. Tomonlar hamkorlikni yanada kengaytirish, jumladan, O'zbekiston — Ozarbayjon ikkinchi parlamentlararo forumini tashkilotlashish hamda qo'shma tashabbuslarni amalga oshirish masalalarini muhokama qildi.

Belarus Respublikasi Milliy Majlisi Respublika Kengashining Xalqaro ishlar va milliy xavfsizlik bo'yicha doimiy komissiyasi raisi Sergey Aleynik bilan uchrashuv davomida ikki mamlakat parlamentlararo hamkorligining ustuvor yo'nalishlari ko'rib chiqildi. Jumladan, navbatdagi O'zbekiston — Belarus parlamentlararo anjumanini, parlament rahbarlari uchrashuvlarini, Yosh parlament a'zolari forumini tashkil etish hamda hududiy vakillik organlari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish masalalarini muhokamadan o'tkazildi.

AHOLI BILAN OCHIQ MULOQOT

Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlari, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari Odiljon Mamatkarimov Namangan viloyatining Uychi tumanida aholi uchun navbatdagi sayyor qabul o'tkazdi.

Sayyor qabul

Qabul davomida fuqarolardan 15 dan ortiq murojaatlar kelib tushdi. Ularning aksariyati ichki yo'llarni obodonlashtirish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash hamda "O'liyozil tadbirkorlik" dasturi doirasida imtiyozli kreditlar ajratish masalalariga tegishli bo'lib, murojaatlarining 10 tasi joyida ijobiy hal etildi. Muddat talab qiladigan masalalar yuzasidan esa tegishli tashkilot va idoralar mas'ullariga ko'rsatmalar berildi, ularning ijrosi qat'iy nazoratga olindi.

Shuningdek, uchrashuv davomida aholi bilan ochiq muloqot o'tkazilib, fuqarolarga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, yangi qonunchilik tashabbuslari hamda davlat dasturlarining mazmun-mohiyati haqida tushuntirish berildi.

Ta'kidlanganidek, bunday sayyor qabullar fuqarolarning muammolarini o'z vaqtida hal etish, ularning yashash sharoitini yaxshilash hamda davlat organlari faoliyatining ochiqligi va samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

PROFESSIONAL KADRLAR ZAXIRASINI
SHAKLLANTIRISHDA MUHIM BOSQICH

O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi hamda Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tashabbusi bilan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabida nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) vakillari uchun "Ijtimoiy ta'sir va notijorat tashkilotlari boshqarish" yo'nalishida qisqa muddatli malaka oshirish kurslari tashkil etildi.

O'quv

Bir haftalik intensiv shakldagi ta'lim dasturi NNT rahbarlari va xodimlari uchun mo'ljallangan. Dastur mazmuni zamonaviy talablar asosida shakllantirilib, huquqiy asoslar va institutsional rivojlanishdan tortib, loyiha boshqaruvi, strategik kommunikatsiyalar, resurslarni jalb qilish hamda ijtimoiy ta'sirni

baholashgacha muhim yo'nalishlarni qamrab oladi.

Kurs doirasida amaliy yondashuvga ustuvor ahamiyat qaratilgan bo'lib, ishtirokchilar ijtimoiy loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish vositalarini, davlat organlari, biznes subyektlari hamda xalqaro hamkorlar bilan samarali sheriklik mexanizmlarini, shuningdek, o'z faoliyatini barqarorligi va samaradorligini oshirish yo'llarini o'zlashtiradi.

O'quv jarayoni tegishli davlat organlari, tahlil markazlari va ta'lim muassasalarining yetakchi ekspertlari jalb qilgan holda ta'minlandi. Shuningdek, dasturga NNT sektorini raqamlashtirish hamda boshqaruvda innovatsion texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq zamonaviy mavzular ham kiritilgan.

Mazkur kurs nodavlat sektorining professional kadrlar zaxirasini shakllantirishda muhim bosqich bo'lib, ijtimoiy loyihalarni boshqarish samaradorligini oshirish hamda NNTni O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish jarayoniga faolroq jalb qilishga ko'maklashadi.

"Xalq so'zi".

BARQAROR RIVOJLANISHDA YANGI IMKONIYATLAR VA
MUSTAHKAM HUQUQIY ASOS

Yangi tartibga ko'ra, agar tadbirkor bir oy ichida jarimaning 50 foizini to'lasa, qolgan qismi bekor qilinadi. Jarimalarni 6 oy davomida bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berilishi biznes uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratadi.

Jarayonlarni raqamlashtirish, "Yagona davlat nazorati" axborot tizimi orqali elektron reyestr yuritish, qarorlarni elektron raqamli imzo bilan tasdiqlash va onlayn shikoyat berish tizimini joriy etish ko'zda tutilayotgani urg'ulandi. Fraksiya a'zolari bu kabi imkoniyatlar adolat, shaffoflik va tadbirkorlar huquqlarini ishonchli himoya qilishini aytdi.

Yig'ilishda mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan qonun loyihasi — O'zbekistonning Yangi taraqqiyot banki (YTB) to'g'risidagi bitimga qo'shilishi masalasi ko'rib chiqildi.

Hujjatga muvofiq, O'zbekiston 2014-yilda tashkil etilgan mazkur nufuzli moliyaviy institutga a'zo bo'lish orqali global investitsiya jarayonlaridagi ishtirokini kengaytirishni maqsad qilgan.

Ushbu hamkorlik iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash, zamonaviy infratuzilmani barpo etish va uzoq muddatli imtiyozli moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi.

Yangi taraqqiyot banki, avvalo, rivojlanayotgan mamlakatlarda infratuzilma va barqaror rivojlanish loyihalarini qo'llab-quvvatlashga ixtisoslashtirilgan bo'lib, unga a'zo bo'lgan davlatlar o'rtasida o'zaro manfaatdorlik tamoyillari asosida faoliyat yuritadi.

Munozaralar davomida fraksiya a'zolari ushbu qonun loyihasi yuzasidan o'z nuqtayi nazarini bildirdi. Deputatlarning fikricha, O'zbekistonning Yangi taraqqiyot bankiga a'zo bo'lishi milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda muqobil va imtiyozli sarmoyalarni oqimini ta'minlash imkonini beradi.

Ushbu hamkorlik mamlakatimizga xalqaro moliyaviy maydonda o'z manfaatlarini muhofaza etish, energetika, infratuzilma, suv xo'jaligi va transport sohalarida istiqbolli investitsiya loyihalarini imtiyozli shartlarda moliyalashtirish uchun yangi imkoniyatlar ehsinini ochadi, — deydi fraksiya a'zosi Ruslan Sobirov. — Eng muhimi, yurtimizda yangi korxonalar

va minglab ish o'rinlarini yaratishga hissa qo'shadi.

Yig'ilishda ko'rib chiqilgan barcha masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

O'zbekistonning turizm
salohiyatini oshirishga
xizmat qiluvchi hujjat

"Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "Kelib chiqish joy nomlari va geografik ko'rsatkichlar to'g'risidagi Lissabon bitimining Jeneva aktiga (Jeneva, 2015-yil 20-may) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi haqida"gi qonun loyihasi muhokama qilindi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish yo'lida ko'plab xalqaro shartnomalarga qo'shilyapti. Jeneva akti ham ana shunday hujjatlardan biri bo'lib, u orqali tovar



kelib chiqqan joy nomlari va geografik ko'rsatkichlar Butunjahon intellektual mulk tashkiloti doirasidagi yagona qoidalar asosida muhofaza etiladi.

Geografik ko'rsatkichlar xalqaro amaliyotda keng tarqalgan bo'lib, birgina Yevropa Ittifoqi davlatlarida 3 mingdan ortiq geografik ko'rsatkichlar va tovar kelib chiqqan joy nomlari ro'yxatdan o'tkazilgan.

Tashabbuskorlar O'zbekistonning ushbu hujjatga qo'shilish zarurati haqida to'xtalib, bu dunyoga ochilayotgan O'zbekistonning turizm salohiyatini yanada kengaytirishga, ayniqsa, geografik nomlar bilan bog'liq hududiy brendlar mashhurligini oshirishda

muhim ahamiyatga ega bo'lishini ta'kidladi. Jeneva akti esa aynan bunday munosabatlarni xalqaro miqyosda tartibga soladi. Ya'ni O'zbekistonning joy nomlari bilan bog'liq milliy mahsulotlari Jeneva akti orqali xalqaro miqyosda huquqiy jihatdan himoya qilinadi. Bugungi kunda ushbu tizimdan 1060 ta tovar ro'yxatdan o'tkazilgan.

Deputatlarning qayd etishicha, endilikda Jeneva aktiga qo'shilish orqali ma'lum bir hududga xos, ayniqsa, qishloq xo'jaligi va hunarmandchilikka oid mahsulotlarimizni xalqaro darajada ham ommalashtirish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Bu mintaqaviy brendlarni rivojlantirish, bozor munosabatlarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Fraksiya a'zosi Nodir Tilavoldiyev O'zbekistonning deyarli barcha hududlarida geografik ko'rsatkichlar sifatida ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin

bo'lgan noyob mahsulotlar ko'pligini ta'kidlab, O'zbekistonning Jeneva aktiga qo'shilishi, shubhasiz, hududlarga sayyohlar oqimining ko'payishiga, "gastronomik turizm" rivojlanishiga, ayniqsa, O'zbekistonning xalqaro maydondagi imji yanada yaxshilanishiga xizmat qilishini ta'kidladi.

Raqamli sektorga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi oshadi

"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida dastlab Prezidentimiz raisligida uy-joy qurilishi va urbanizatsiya

sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, mavjud muammolar va kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining ahamiyati haqida so'z yuritildi.

Deputatlar so'nggi yillarda iqtisodiyotimizdagi yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashda qurilish industriyasi eng asosiy lokomotivlardan biriga aylanib borayotganini qayd etdi. Bugungi kunda sohada 10 mingga yaqin yangi korxonalar ochilishi, 3,5 mln. aholining bandligi ta'minlangani ijtimoiy barqarorlikning muhim omili ekanligi urg'ulandi.

Fraksiya a'zosi Gulnoraxon Abduvohidova mazkur masala yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildirar ekan, davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan ustuvor vazifalar yuzasidagi qurilish va urbanizatsiya sohasini yangi bosqichga olib chiqish, aholini munosib uy-joy bilan ta'minlash hamda yangi ish o'rinlari yaratishga xizmat qilishini ta'kidladi.

Yig'ilishda "Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasi atroflicha ko'rib chiqildi.

Ushbu hujjatning maqsadi — Raqamli texnologiyalar xalqaro markazining maxsus manzil sifatidagi maqomini va uning hududida amal qiladigan maxsus huquqiy rejimini belgilashdan iborat.

— Qonun loyihasi fraksiyamiz yig'ilishida atroflicha muhokama qilindi, — deydi fraksiya a'zosi Behzod To'xtamurodov. — Mazkur hujjatning qabul qilinishi yurtimizda IT sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini, raqamli sektorga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini oshirishga, raqamli texnologiyalar sohasida yangi ish o'rinlarini yaratishga yo'l ochadi.

Yig'ilishda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Aholi salomatligi va
sanoat xavfsizligi —
muhim masala

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida mamlakatimizning xalqaro tashkilotlarga a'zolingining ijtimoiy ahamiyati, ayrim hududlar chegaralaridagi o'zgarishlar va ushbu joylarda ijtimoiy obyektlarning joylashuvi masalalari

atroflicha ko'rib chiqildi.

Yig'ilish kun tartibidan o'rin olgan asosiy masalalardan biri — "Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining va potensial xavfli obyektlarning sanoat xavfsizligi to'g'risida"gi qonun loyihasi bo'ldi. Mazkur loyiha doirasida deputatlar tomonidan aholi xavfsizligini ta'minlash, xususan, xavfli obyektlarning atrof-muhit va aholi salomatligiga ta'sirini chuqur o'rganish, aniq va amaliy chora-tadbirlarni belgilash zarurligi ta'kidlandi. Shu jihatdan, qonun normalarining samarali ishlatishi uchun ularni aniq mexanizmlar bilan mustahkamlash lozimligi qayd etildi.

Shuningdek, xalq deputatlari Kengashlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ham qizg'in muhokama qilindi. Unda Kengashlar vakolatlarini aniq belgilash, jumladan, ularning qo'shimcha vakolatlari faqat qonun hujjatlari orqali tartibga solinishi nazarda tutilmoqda.

Muhokama jarayonida ayrim normalar yuzasidan tanqidiy fikrlar ham bildirildi. Xususan, deputat Sayyora Imomova hokimlarning mahalliy Kengashlarda deputatlik maqomini saqlab qolishi manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi muhimligini qayd etdi va ushbu normani qo'shimcha muhokama qilish taklifi ilgari surildi.

Yig'ilishda fraksiyaning yaqin rejalari ham belgilab olindi. Aytganidek, yaqin vaqtlarda deputatlarining hududlardagi o'rganishlari tashkil etiladi. Ushbu o'rganishlar davomida maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida o'quvchilar uchun yaratilayotgan xavfsiz sharoitlar, moddiy-texnik bazaning holatiga alohida e'tibor qaratiladi. Bu jarayon mahalliy Kengashlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda.

Yakunda fraksiya kun tartibiga kiritilgan qonun loyihalarini konseptual jihatdan qo'llab-quvvatladi.

Nogironligi bo'lgan bolalarga kunduzgi parvarish xizmatini ko'rsatuvchi tadbirkorlar 2030-yil 1-yanvargacha qadar barcha turdagi soliqlardan ozod qilinadi.

"Xalq so'zi".



Dunyo hamjamiyati Orolbo'yini global ekologik ofat zonasi, deb biladi. Shu bois xalqaro tashkilotlar bu mintaqada amalga oshirilayotgan har bir loyihaga jiddiy e'tibor qaratadi. Noyob, lekin zaif ekotizimi bilan ajralib turuvchi Qoraqalpog'iston bugun tuproq degradatsiyasi, suv zaxiralari yetishmovchiligi, bioxilmaxillikning yo'qolib borishi kabi mislsiz xatarlarga duch kelmoqda. O'sib borayotgan antropogen bosim esa shoshilinch choralar ko'rish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Mushohada

Orolni qutqarish — umumiy ish

22-aprel kuni Ostona shahrida Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlarining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tadi. Ushbu tadbirda mintaqadagi besh davlat — Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston Respublikalari rahbarlari ishtirok etadi.

Shakllangan amaliyotga ko'ra, Prezidentlarning mazkur xalqaro jamg'arma doirasidagi uchrashuvlari har uch yilda bir marta bo'lib o'tadi. So'nggi sammit Dushanbe shahrida 2023-yilda tashkil etilgan edi. O'sha uchrashuvdan so'ng navbatdagi uch yil davomida jamg'arma raisligi vakolati Qozog'iston tomoniga o'tgan.

Endi bo'ladi yig'ilishda qatnashchilar Orolbo'yida yuzaga kelgan vaziyatni muhokama qiladi, bu vaziyat esa birgalikda keskin choralarini ko'rishni talab etmoqda. Aks holda, 2050-yilga borib, Orol dengiz jug'rofiy xaritalardan yo'qolib ketishi mumkin. Ma'lumki, Markaziy Osiyo hududida iqlimni shakllantiruvchi suv havzasi bo'lmish Orolni to'ldirish uchun suv Amudaryo va Sirdaryodan olinadi. Bu daryolarning suvi esa sug'orish uchun nazoratsiz ishlatib yuboriladi. Shu sababli, Orolni qutqarish mintaqadagi barcha mamlakatlar uchun dolzarbdir.

Infratuzilmaviy yangilanish

Infratuzilmaviy yangilanish turizmi rivojlantirish va hayot sifatini yaxshilashning katalizatoridir. Shu ma'noda, mahalliy aeroport rekonstruksiya qilingach va yangi avtomobil yo'llari qurilgach, biznes uchun asosiy to'siq bo'lib turgan transport muammosi yechim topdi. Teletibbiyotni joriy etishdan boshlab, to'ahoning 83 foizini toza

ichimlik suvi bilan ta'minlashgacha bo'lgan ijtimoiy masalalarga davlat tomonidan e'tibor berilishi esa yoshlarning boshqa viloyatlarga ketib qolishini to'xtatish, mahalliy aholi uchun IT-sohasi va tadbirkorlikda o'z qobiliyatlarini ishga solish uchun sharoit yaratadi.

Keng ko'lamlı vazifalarni amalga oshirish boshqaruvning barcha bo'g'inida hamkorlik yo'lga qo'yilishini talab etadi. Bu jarayonda Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasining alohida roli bor. Uning vazifalari Orol dengizining qurigan tubida melioratsiyaga doir ko'lamlıd tadbirlarning olib borilishi, saho yerlarini ko'kalamzorlashtirish, oqova suvlarini tozalash va sanoat chiqindilarini kamaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iborat, bu esa o'z o'rnida mahalliy ekotizim balansini rejalı ravishda tiklash imkonini beradi.

— "Yashil makon" umummilliy loyihasi ustuvor vazifalardan biri, — deydi Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi raisi Leyla Seitova. — Uning doirasida 2025-yil uchun rejalashtirilgan 17,5 mln. tup ko'chat o'rniqama amalda 18,2 mln. tup ko'chat ekildi. Bunday natijaga erishishda sanoat korxonalarining ishtiroki sezilarli bo'ldi. Ularda mehnat qiluvchi xodimlar "yashil belbog" yaratish uchun 340 ming tup daraxt o'tqazdi. "Mening bog'im" loyihasi 15 ta shahar va tumanda yashovchi aholini jalb etdi, natijada maydoni 18,6 gektar bo'lgan yerda hozir deyarli 11 ming tup ko'chat o'sayotir. Shuningdek, xalqaro hamkorlik doirasida mintaqamizga O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan 3 ming tuvaloq (qush) keltirilib, tabiatga qo'yib yuborildi, ular tabiiy populyatsiyani tiklaydi. Tabiatni asrashga tegishli tashabbuslar aholi tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. O'tgan yili, masalan, aholi murojaatlarining natijasi bo'yicha 9 ming tup daraxt kesilishiga taqiq qo'yildi.

Barqaror rivojlanish modeli

Qoraqalpog'iston ekologik halokat mintaqasi maqomidan barqaror rivojlanish modeliga o'tib bormoqda. Tabiatni tiklash, texnologiyalarni joriy etish va iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha kompleks yondashuv o'z natijasini ko'rsatib, mintaqaning kelgusi taraqqiyotiga zamin yaratmoqda.

Keng ko'lamlı ekologik islohotlarni amalga oshirish doirasida asosiy transport yo'llari bo'yab "yashil belbog" yaratishga katta e'tibor berilyapti. Joriy yilda Qoraqalpog'istonda umumiy uzunligi 373 kilometr bo'lgan avtomobil trassalarining chetida 988 ming tup manzarali daraxt va buta ekish rejalashtirilgan. Bu ishlar daraxt ekish maydonlarini kengaytirish va havo sifatini yaxshilashga qaratilgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida ikki bosqichda amalga oshiriladi. Bahor mavsumida 164 kilometr uzunlikdagi yo'llar chetida 435 ming tupdan ortiq, kuzda esa yana 208 kilometrda 553 ming tupdan ziyod ko'chatlar ekiladi.

Yurtboshimizning Milliy dendrologiya parkiga asos solishdagi ishtiroki katta ishga o'z hissasini qo'shishga tayyor bo'lgan har bir yurtdoshimizga ko'tarinki ruh bag'ishladi. G'uzor — Buxoro — Nukus — Beynevo yo'nalishi bo'yicha "A-380" xalqaro trassasining muayyan qismini ko'kalamzorlashtirishda O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi raisi Jamshid Tursunov ishtirok etib, bunday tadbirlar tuproqni eroziyadan saqlash va chang darajasini kamaytirishga xizmat qilishi, Orolbo'yı mintaqasi uchun juda dolzarb ekanini ta'kidladi.

Transformatsiya bo'yicha noyob tajriba

Mo'ynoq tumani bugun ham mamlakatimiz rahbarining diqqat markazida. Bu yerdagi yangilanishlar barcha sohani qamrab olgan, desak, mubolag'a emas. Suv zaxiralari boshqarib, ularni yo'qotilishini kamaytirish va suvdan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan ishlar o'z natijasini bermoqda. Ayniqsa, suv taqchilligi ko'proq seziladigan Orolbo'yı mintaqasi uchun bu tadbirlar katta ahamiyatga ega.

Islohotlar doirasida suv tejoychi texnologiyalar joriy etilmoqda, infratuzilma yangilanayapti. Bunday texnologiyalar bilan 2,6 mln. gektar sug'oriladigan yerlar qamrab olingan, ya'ni ular umumiy maydonning deyarli 60 foizini tashkil etadi. Bu esa yiliga 2,5 mlrd. kubometr suvni tejash imkonini beradi.

Mo'ynoq tumanida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar sug'orish tarmoqlarida suv yo'qotilishini kamaytirish, aniq hisob-kitob yuritish, zaxiralarni oqilona taqsimlashga qaratilgan. Kelajakda suv zaxiralarini iqtisod qilish hajmini 3,5 mlrd. kubometr gacha



yetkazish rejalashtirilgan. Bu esa qishloq xo'jaligining barqarorligini oshirish, uzluksiz suv ta'minotini yo'lga qo'yish, mintaqada ekologik vaziyatni yaxshilash imkonini beradi.

Mo'ynoqning zamonaviy tarixi — uni global ekologik inqiroz zonasidan innovatsion va iqtisodiy taraqqiyot markaziga aylantirish bo'yicha noyob misol. Hukumatimizning uni qayta tiklashga qaratilgan qaror va yechimlari ekologik sog'lomlashtirish, industrial "sakrash", energetika mustaqilligi hamda ijtimoiy modernizatsiyaga asoslanadi.

Joriy yilga kelib, daraxtzorlarni ko'paytirishga qaratilgan mislsiz sa'y-harakatlar tufayli saksuvul va boshqa cho'l o'simliklari ekilgan maydonlar 2,1 mln. gektardan oshib ketdi. Shuning barobarida suv zaxiralari naviy yo'l dosh monitoringi asosida raqamli boshqarish tizimi yo'lga qo'yildi, bu esa — suvni oqilona taqsimlash va lokal suv havzalarni qayta tiklash imkonini yaratadi. Suv va bo'xona afzalliklari bo'yicha alohida huquqiy maqom berilishi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimi uchun maksimal darajadagi qulay shart-sharoitlarni ta'minladi.

Ilgari iqtisodiyotning asosiy tarmog'i baliqchilik bo'lgan, endi tabiiy gaz qazib olish va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishga urg'u berilmoqda. Shuningdek, Mo'ynoqni global "yashil" kun tartibiga integratsiya qilish muhim yutuqlardan biri bo'ldi. Yuqori quvvatga ega bo'lgan shamol elektr stansiyalari qurilishi mintaqaga energiya bilan o'z ehtiyojlarini o'zi qondirish imkoniyatini berdi, Qoraqalpog'iston uchun toza elektr energiyasini yetkazishda asosiy manbaga aylandi.

Vazifa bajariladi

Mintaqaning ekologik transformatsiyasida xalqaro hamkorlik ham muhim ahamiyatga ega va ular asosida yo'yobga chiqarilayotgan tashabbuslar ekologik halokat oqibatlarini bartaraf etish hamda kelgusida bunday inqirozlarga yo'l qo'yimaslikka qaratilgan.

Shunday vazifalardan biri O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi qoshidagi Orolbo'yı xalqaro innovatsiya markaziga yuklatilgan. 2018-yilda tuzilgan ushbu markaz mintaqani barqaror rivojlanish texnologik drayveniga aylantirish uchun tayyor bo'lgan olim va novatorlarni

birlashtirgan strategik maydon vazifasini o'tadi.

Markaz faoliyatidagi muhim voqea Xitoy Fanlar akademiyasining Sinszyan ekologiya va geografiya instituti bilan yaqindan aloqa o'rnatishi bo'ldi. Bu hamkorlik doirasida "yashil" texnologiyalarni tadqiq qilish va namoyish etish bo'yicha qo'shma laboratoriya ochish to'g'risida kelishuv imzolandi. Unga ko'ra, markazga zamonaviy laboratoriya jihozlari ajratildi. Bu esa Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlarining ekologik tiklanish, samarali suv tejash texnologiyalari, oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi, bioxilmaxillikni ta'minlash kabi yo'nalishlar bo'yicha tajribasini joriy qilishga yo'l ochdi.

Istiqbolli loyihalar — amalda

Qoraqalpog'iston Qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan "SATREPS 2020" loyihasi galofit o'simliklardan yem-ovuqa tayyorlashga nisbatan iqlim jihatidan barqaror yondashuvlarni ishlab chiqishga qaratilgan. Uning doirasida suv va tuzlar dinamikasini modellashtirish asosida galofit dehqonchilik bo'yicha "Yo'l xaritasi" yaratilmoqda.

Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan e'lon qilingan tanlovda yutib chiqqan yana bir loyiha Orol dengizining qurigan tubida yem-xashakka mo'ljallangan sahvoviy o'simliklarning navlarini sinovdan o'tkazish bilan bog'liq. U yerda qora saksuvul, norboyalish va oq karrak o'simliklarining urug'lari ekildi, — deydi markaz direktori Baxitjan Habibullaev. — "Qoraqalpog'istonning degradatsiyaga uchragan yerlarida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqaror tizimini rivojlantirish" loyihasi ham amaliy natija bermoqda. U 2023 — 2026-yillarga mo'ljallangan bo'lib, Abu-Dabi rivojlanish fondi tomonidan Sho'rlanish sharoitida biodehqonchilik xalqaro markazi bilan hamkorlikda moliyalashtirilmoqda. Mo'ynoq va Nukus tumanlarida 2 gektar maydonda galofit o'simliklari uchun tajriba uchastkalari ajratilgan. Ularda oq jo'xori, Afrika tarigi, loviya, mosh va kungaboqaming 23 xil navi ekilib, sinovdan o'tkazilyapti.

Ushbu natijalarni ommalashtirish uchun Mo'ynoq, Qo'ng'iro't, Xo'jayli, Amudaryo, Chimboy, Kegeyli va Nukus tumanlarida seminarlar o'tkazildi. 12 turdagi o'simliklarning urug'lari 1 500 dan ziyod fermerlarga tarqatildi. Loyiha nufuzi "Energy Globe Award 2024" xalqaro mukofotining milliy g'olibi, deya e'tirof etildi. Markaz ancha "jonli" material, ya'ni 70 turdagi galofit o'simliklarning 2,5 tonnadan ko'proq urug'ini to'pladi, bu urug'lar Jizzax, Navoiy, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlaridagi o'rmon xo'jaliklariga tarqatildi. Shuningdek, o'simliklarni "in vitro" usulida ko'paytirish va genetik bank tashkil etish bo'yicha loyiha ham 2025-yilda Innovatsion rivojlanish agentligi o'tkazgan tanlovda g'olib deb topildi.

Bunday tashabbuslar ekologik inqirozni hal qilish sari uzoq muddatli qadam bo'lib, u mintaqani, Markaziy Osiyoni ilmiy taraqqiyot maydoniga aylantiradi. Markazning rejalari qishloq xo'jaligi uchun intellektual yechimlarni joriy etish, biznes-akselerator va texnopark tashkil qilish, startaplar, yoshlar va xotin-qizlar uchun mo'ljallangan dasturlarni kengaytirishdan iborat.

Alyona AMINOVA, Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist.

Xalqaro turnir

YOSH POLVONLAR PREZIDENT SOVRINI UCHUN BELLASHDI

Urganch shahrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun Pahlavon Mahmud xotirasiga bag'ishlangan kurash bo'yicha o'smirlar o'rtasidagi Osiyo kubogi musobaqalari yakunlandi.

Ta'kidlash joizki, ushbu an'anaviy tumir qatnashchilari safi yildan-yilga kengayib, musobaqalarda Osiyo davlatlarining eng nomdor yosh polvonlari ishtirok etib kelishyapti. Bu gal hamyurtlarimiz bilan bir qatorda Hindiston, Janubiy Koreya, Afg'oniston va Markaziy Osiyo davlatlaridan tashrif buyurgan 200 nafarga yaqin yosh polvonlar g'oliblik uchun kurash olib bordi.

Musobaqa yakunlariga ko'ra, qizlar o'rtasidagi yakallik bahslarida yurtdoshlarimiz Muslima Abduqodirova va Dilnura Erkinboeva, tojikistonlik Fotima Isanbayeva o'z vazn toifalarida oltin medalni qo'lga kiritdi.

G'olib bolalar o'rtasida kechgan shiddatli bellashuvlarda hamyurtlarimizdan Ibrohimjon Azadov, Mehridin Abdurasulov, Shohmurod Shomurodov va Alibek Durdiyev shohsupaning eng yuqori pog'onasiga ko'tarildi. Shuningdek, turkmanistonlik Bilal Mergenov ham o'z vaznida tengsiz deb topildi. Kumush va bronza medallar Hindiston, Janubiy Koreya, Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston va Afg'oniston vakillariga nasib etdi.

Jamoaviy hisobda O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi faxrii birinchi o'rinni egallab, Osiyo kubogi sohibiga aylandi. Keyingi o'rinlarni Tojikiston, Turkmaniston va Qozog'iston jamoalari band etdi.

G'olib va sovrindorlar tashkilotchilar tomonidan diplom, medal va qimmatbaho esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi. Musobaqa doirasida sportchilar va murabbiylar Xiva shahridagi Pahlavon Mahmud maqbarasini ziyorat qilib, "lchan qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasidagi tarixiy obidalar bilan tanishdi.

Odilbek ODAMBOYEV ("Xalq so'zi").

San'at

SAHNADA MANGU MUHABBAT DOSTONI

O'zbekiston davlat drama teatrida buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni asosida sahnalashtirilgan spektakl namoyishi bo'lib o'tdi. Mazkur sahna asari buyuk shoir bobomiz tavalludining 585-yilligi keng nishonlanayotgan ushbu yilda xalqimizga, adabiyot va teatr ixlosmandlariga munosib tuhfa bo'ldi.

G'oya muallifi va adabiy maslahatchi — O'zbekiston xalq yozuvchisi Xayriddin Sulton, inssenirovka muallifi — Ikrom Iskandar, sahnalashtirish badiiy rahbari — O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, Hamza nomidagi Davlat mukofoti sovrindori Olmijon Salimov bo'lgan mazkur spektakl namoyishi tadbirda qatnashgan yurtimiz ijodkor ziyolilari, san'at va madaniyat sohasi namoyandalari, keng jamoatchilik vakillarida katta qiziqish uyg'otdi.

Tadbirda so'z olganlar Alisher Navoiy merosi barcha zamonlar uchun ona tilimiz jozibasini namoyon etuvchi bebaho ma'naviy xazina, yuksak axloqiy mezon va milliy iftixor manbai ekanini alohida ta'kidladi. Shu bois ulug' mutafakkir asarlarini xalqimizga, ayniqsa, yosh avlodga yanada yaqinlashtirish, ularda ilgari surilgan ezgu g'oyalarni keng targ'ib etish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

"Layli va Majnun" dostoni yuksak badiiyati va teran falsafiy mazmuni bilan bugun ham jahon ilmiy jamoatchiligi diqqat markazida. Asar faqatgina ikki oshiq qissasi emas, balki Yaratganga sadoqat, pok muhabbat va komil inson g'oyasining badiiy ifodasidir. Spektaklni sahnalashtirish jarayonida ana shu ma'naviy-ruhiy qatlamlarni chuqur ochishga alohida e'tibor qaratilgani tahsinga sazovor.

Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi, O'zbekiston xalq yozuvchisi Xayriddin Sultonov ishtirok etdi.

Roziya YUNUSOVA, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi.

Fikr

Nodira RASHIDOVA, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati, "Adolat" SDP fraksiyasi a'zosi:

— Qoraqalpog'iston jiddiy ekologik muammolarga uchrayapti, ularning asosiy Orol dengizining qurishi oqibatlarini bilan bog'liq. Bu jarayonlar atrof-muhitga, qishloq xo'jaligi va aholining turmush sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu tufayli nstandart yechimlar va aniq maqsadga yo'naltirilgan sa'y-harakatlar talab etiladi. Respublika yer resurslarining sezilarli qismi foydalanilmay qolmoqda va bu ham ekologik cheklorlar, jumladan, tuproq sho'rlanishi va suv yetishmovchiligi bilan bog'liq. Mavjud 18,5 mln. gektarga yaqin yerlardan kichik bir qismigina foydalanilmoqda, qolgan yer maydonlari esa tiklanish hamda

oqilona ishlatilishga muhtoj. Degradatsiyaga uchragan yerlarni qayta tiklash ekologik siyosatning muhim yo'nalishi bo'lib qoldi. Jumladan, cho'llanish va hosildorlikning pasayishidan ziyon ko'rgan 10 ming gektar yuvoylarni reaktivatsiya qilish ham rejalashtirilgan. Tabiatdan foydalanishning samaradorligini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalar joriy etilmoqda. O'simlik qoplamining holatini monitoring qilish sun'iy intellekti qo'llagan holda amalga oshiriladi, bu esa yer degradatsiyasini o'z vaqtida aniqlab berish va shunga yaroqta tadbirlarni ko'rish imkonini yaratadi. Shuningdek, qurg'oqchilik va sho'rxok yerlarga chidamli o'simliklarni aniqlashga e'tibor qaratilyapti. Ular orasida mintaqaning murakkab iqlim

sharoitlariga moslashtirilgan dorivor o'simliklar ham bor. Bu esa qishloq xo'jaligining ekologik barqarorligini yaxshilash hamda muammoli yerlardan samarali foydalanishga yo'l ochadi.

Nursultan BIYESENBAEV, tadbirkor (Mo'ynoq tumani):

— Bundan bir necha yil muqaddam mamlakatimizdan tashqarida, xorijda ishladim. Kelajagim qanday bo'lishini hali tasavvur ham qilolmas edim. Davlatimiz rahbari tomonidan yoshlar uchun imkoniyatlar yaratilishi tufayli menda ham o'zimga, o'z kuchimga ishonch uyg'ondi. Uyg'a qaytgach, o'z ishmini boshlash bo'yicha muhim qarorga keldim. Kredit oldim va jonajon Mo'ynoq shahrimizda fotostudiyaga ochdim. To'g'ri, bu ishlar o'z-o'zidan yuzaga chiqmadi, biroq

harakatda bo'lsang va seni qo'llab-quvvatlashga, ishing, albatta, yurishar ekan. Mana, bugun shahrimiz yangicha qiyofa kasb etib, chiroyli va yashash uchun qulay makonga aylanib boryapti. Mo'ynoq o'zgarar ekan, u bilan birga biz ham o'zgarimoqdamiz.

Bibisanem KENESBAYEVA, Qoraqalpog'iston Qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi, Prezident stipendiyati:

— Hayotga tatbiq etilayotgan ishlarda yosh olimlarning hisssasi muhim, deb o'ylayman. Orolbo'yining ekologik farovonligi ham ularga bog'liq. Bir qancha innovatsion loyihalar ishlab chiqildi. Ulardan biri — "Aqua Solar". Shu loyiham "Eco-Innovation 2025" tanlovida

e'tiborga molik deb topildi. Mening yondashuvim jahon tajribasini integratsiya qilishga asoslangan va bunga ingliz tilidagi manbalarni o'rganish orqali xalqaro olimpiadalarda qatnashish orqali erishdim. U mintaqamizdagi baliq mahsulotlarini ishlab chiqarishda zamonaviy sifat va xavfsizlik standartlarini joriy etish imkonini beradi.

Baliqchilik sohasidagi ilmiy izlanishlarimni Orolbo'yining ekologik holati bilan bog'liq holda ko'raman. Bu yerda suv zaxiralari va bioxilmaxillikni ta'minlash eng hayotiy masala. Baliqlarning kasalliklarini o'rganaman, ayniqsa, mahalliy suv havzalarning o'ziga xos sharoitida bu kasalliklar bilan kurashishda samara beruvchi usullarni izlayman. Bunda tabiatga antropogen ta'sirni minimallashtirish muhim o'rin tutadi.

AQSHda Amir Temur tavalludining 690-yilligi munosabati bilan "Ulug' Amir va Donna Mariya" badiiy filmining premyerasi bo'lib o'tdi.

Xalq so'zi Narodnoe slovo MUASSISLAR: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'ktir RAHMATOV 2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-142. 31 016 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda. Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuksak olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling. TELEFONLAR: Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va mullifiga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begumarov tomonidan sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefon: 71-233-11-07. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 02.13 Topshirildi — 02.25 1 2 3 4 5 6

MANZILIMIZ: 100066, Toshkent shahri, Islov Karimov ko'chasi, 55-uy. Nabatchi muharrir R. Bobojonov. Musahhih Sh. Mashrabboyev.